



## MINTAQALARNING BARQAROR RIVOJLANISHI SHAROITIDA IQTISODIY STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

*i.f.d., prof. Qodirov Abdurashid*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi*

*“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy*

*asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi*

*ORCID: 0009-0009-7186-3309*

*[kadirovabdurashid.55@gmail.com](mailto:kadirovabdurashid.55@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mintaqaviy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda yangi iqtisodiy sharoitlarda hududlarning o‘rni, roli va vazifalari ko‘rib chiqilgan, o‘zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning metodologik jihatlari ochib berilgan, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirish mexanizmlari asoslangan. Shu bilan birgalikda, muayyan mintaqaning rivojlanish strategiyasi mamlakatning rivojlanish strategiyasiga mos kelishi va u bilan yaxlit bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaq, rivojlanish, strategiya, iqtisodiy sharoit, hududlar, metodologiya, institutsional sharoit, mexanizm, tarmoqlar, modernizatsiya, mintaqaviy siyosat.

## МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРАТЕГИИ В УСЛОВИЯХ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ

*д.э.н., проф. Кадыров Абдурашид*

*Научно-исследовательский центр*

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»*

*при Ташкентском государственном экономическом университете*

**Аннотация.** В статье рассмотрены роль, место и функции регионов в разработке стратегии регионального развития в новых экономических условиях. Раскрыты методологические аспекты развития региона в условиях трансформирующейся экономики, а также обоснованы механизмы реализации стратегии в новых институциональных условиях. Кроме того, показано, что стратегия развития конкретного региона должна соответствовать общей стратегии развития страны и быть неотъемлемой частью единой системы стратегического развития.

**Ключевые слова:** регион, развитие, стратегия, экономические условия, территории, методология, институциональные условия, механизм, отрасли, модернизация, региональная политика.

## METHODOLOGY FOR FORMULATING AN ECONOMIC STRATEGY UNDER CONDITIONS OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT

*DSc, prof. Kadirov Abdurashid*

*Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan" under Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article examines the role, significance, and functions of regions in developing a regional development strategy under new economic conditions. It reveals the methodological aspects of regional development in the context of a transforming economy and substantiates the mechanisms for implementing the strategy within a new institutional environment. Furthermore, it emphasizes that the development strategy of a particular region should be aligned with the national development strategy and constitute an integral part of the country's overall strategic development framework.*

**Keywords:** *region, development, strategy, economic conditions, territories, methodology, institutional environment, mechanism, sectors, modernization, regional policy.*

### **Kirish.**

Mamlakatda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar jarayonida iqtisodiyotni markazdan boshqarish darajasidan hududiy va tarmoq darajasida boshqarishga bosqichma-bosqich o'tkazish, hududlarda tegishli dasturlarni amalga oshirish, hududiy organlar huquqlarini kengaytirish, ularning maqom va mas'uliyatini oshirish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi. Tobora chuqurlashtirilayotgan islohotlar davomida masalaga shu nuqtai nazardan yondashilib, hududiy ko'p ukladli iqtisodiyotni boshqarishning shakllanishi va rivojlanishini baholash shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy darajalarda hududiy dasturlarni ishlab chiqish bosqichida ham, ularni amalga oshirishda ham bir qator kamchiliklar mavjud. Ular asosan aniq tadbirlarni ishlab chiqish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ilg'or shakllari va usullarini tatbiq qilishning uslubiy negizini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shuningdek, hududlar va hududlar darajasida istiqbol uchun ishlab chiqilgan aniq maqsadli dasturlar, ularni amalga oshirish usullari va mexanizmlari to'la shakllanmagan. Bu, o'z navbatida, hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishiga, aholi turmush darajasini oshirishga, ishlab chiqarish va xususan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, jahon miqyosida bo'layotgan o'zgarishlar hozirgi sharoitda hududlarda xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini yanada rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va hayot darajasini oshirishning eng muhim omili hamda eng ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

So'nggi paytlarda mintaqalarni tahlil qilishda tizimli yondashuvdan foydalanish faollashdi, bu birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizimlar sifatida o'rganishda namoyon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqaviy siyosati uzoq vaqt davomida asosan ishlab chiqaruvchi kuchlarni taqsimlash jarayonlariga davlat ta'siri siyosati bo'lib kelganligi tasodif emas. I.Beggini(2018) fikricha faol mintaqaviy siyosatni olib boradigan ushbu davlatlar rivojlanmagan hududlarni rivojlantirish, depressiya qilingan sanoat maydonlarini qayta qurish, aglomeratsiyalarni nomarkazlashtirish va sanoat ishlab chiqarish konsentratsiyasi ustidagi maydonlar, klasterlarni shakllantirish va boshqalar bilan ajralib turadi.

Foray (2015) aqlli ixtisoslashuv (Smart Specialisation) nazariyasining ilmiy asoschisi sifatida, innovatsion siyosatning yangi paradigmasini yaratgan. U hududlarni faqat texnologik markazlar emas, balki bilim, tadbirkorlik va tarmoq aloqalarining murakkab ekotizimlari

sifatida tasvirlaydi. Har bir mintaqa o'zining mavjud bilim bazasi, sanoat tarkibi va ijtimoiy tarmoqlari asosida ixtisoslashgan o'sish yo'nalishini tanlaydi.

Foray (2015) aqlli ixtisoslashuv strategiyalarini baholashda monitoring va indikatormetrika tizimining ahamiyatini ko'rsatadi. U "learning region" kontsepsiyasini ilgari surib, siyosatni statik rejalashtirish emas, balki o'zini tahlil qila oladigan va xatolardan o'rganadigan tizim sifatida ko'radi. Foray aqlli ixtisoslashuv strategiyalari haqidagi qarashlari bilan iqtisodiy geografiyada evolyutsion boshqaruv yondashuvining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Rodriguez-Pose (2015) mintaqaviy rivojlanish nazariyasini "institutlar sifati" (good governance) konsepsiyasi orqali qayta talqin qiladi. U hududlar o'rtasidagi farqlarni faqat kapital, infratuzilma yoki inovatsion sig'im bilan emas, balki boshqaruv sifati va ijtimoiy ishonch darajasi bilan tushuntiradi. Empirik tahlillar ko'rsatishicha, institutsional barqarorlik va samarali ma'muriy mexanizmlar mintaqaviy rivojlanishning uzoq muddatli omilidir. Shu bilan birga, yomon boshqaruv, korrupsiya va resurslardan samarasiz foydalanish hududiy tafovutlarni kuchaytiradi.

To'g'ri tanlangan strategiya kuch va mablag'larni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishga va shu bilan bozor sharoitida hududlarning samarali rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi (Chandler, 1962). Yemelyanov Ye.V., Aksenov P.A va Xomeriki N.B (2011) fikrlariga ko'ra ma'lum bir mintaqa iqtisodiyotining samarali rivojlanishini ta'minlash uchun nafaqat mintaqaviy siyosat bilan shug'ullanadigan davlat organlari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki bunday rivojlanishdan manfaatdor bo'lgan keng doiradagi shaxslar va tashkilotlar yordami ham talab etiladi. Mamlakatning davlat tuzumi mintaqaviy siyosat borasida vakolatlarni boshqalarga berish yoki nomarkazlashtirish darajasini belgilab beradi. Granberg, Suslov va Kolomak (1998) metodologik jihatdan interregional o'zaro ta'sirlarni empirik modellashtirishga yaqin turadi va evolyutsion geografiya bilan uzviy bog'liq: makro-hududlar iqtisodiy markazlar atrofida klasterlanadi, transport-logistika tarmoqlari esa ushbu klasterlashuvni barqarorlashtiradi deb xisoblaydi.

Tatarkin (2016) "...mintaqaviy siyosatni iqtisodiy fazoning institutsional boshqaruv instrumenti sifatida talqin qilib, regional targeting konsepsiyasini ishlab chiqadi: strategik ustuvorliklar aniqlanib, resurs va vakolatlar mintaqaviy muammolar xaritasiga mos ravishda taqsimlanadi. Bu yondashuv hududiy siyosatni ko'p darajali boshqaruvda amaliy ijro mexanizmiga aylantiradi. Federal - mintaqaviy - mahalliy darajalarda funksiyalar qayta taqsimlanib, natija indikatorlari orqali monitoring yo'lga qo'yiladi".

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot metodologiyasi globallashtirish sharoitida mintaqaviy rivojlanish strategiyasini milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashda majmualiy yondashuvga asoslanadi. Tahlil jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'unlikda qo'llanilgan. Nazariy darajada fundamental yondashuvlar tizimlashtirildi hamda mintaqaviy iqtisodiyot, texnologik rivojlanish va davlat siyosati sohasidagi ilmiy nashrlar, monografiyalar va ma'ruzalar o'rganildi. Rasmiy hujjatlar va mintaqaviy strategiyaning kontent-tahlili yordamida hududni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi. Bunday ko'p bosqichli yondashuv muammoning har tomonlama tahlil qilinishini hamda olingan xulosalarning asoslanganligini ta'minladi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Hududiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda xalqaro tajribani o'rganish O'zbekiston uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki global miqyosda so'nggi o'n yilliklarda hududiy siyosat konsepsiyasi markazlashgan iqtisodiy o'sish modelidan barqaror, inklyuziv va innovatsion rivojlanish modeliga o'tmoqda. Rivojlangan mamlakatlar xususan Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va Rossiya o'z hududlarida iqtisodiy

o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda, hududlararo tafovutlarni kamaytirish, mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy integratsiyani rivojlantirishga qaratilgan siyosatlarni ishlab chiqqan. Bu mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy hududiy rivojlanish endilikda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki innovatsion ekotizimlar, raqamli transformatsiya, klasterlashuv va inson kapitalini rivojlantirish bilan belgilanadi. Ularning strategik yondashuvlari BRM tamoyillariga muvofiq tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, har bir davlat o'zining institutsional, iqtisodiy va madaniy sharoitlariga mos modellarni shakllantirgan.

Quyidagi jadvalda ushbu davlatlarda qo'llanilgan asosiy instrumentlar, boshqaruv mexanizmlari, indikatorlar va amaliy natijalar iqtisodiy hamda institutsional nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilingan (1-jadval).

Yevropa Ittifoqi (YI) hududiy siyosatining markazida integratsion siyosat turadi. U mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, infratuzilma, innovatsiya va inson kapitaliga sarmoyalar orqali "hech kimni ortda qoldirmaslik" maqsadiga xizmat qiladi.

2021-2027-yil uchun reglamentlar (ERDF, CF, Interreg) integratsion instrumentlarning huquqiy asosini belgilaydi va barqaror, raqamli hamda inklyuziv o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. YI mintaqalari uchun Smart Specialisation Strategy (S3) majburiyati joriy etilib, har bir hudud o'zining taqqoslama ustunliklariga tayanib R&I (ilm-fan va innovatsiya) yo'nalishlarini tanlaydi. Bu yondashuv hududiy klasterlar va bilimga asoslangan o'sishni kuchaytiradi. Integratsion siyosatning kelajakka doir yo'nalishlari ham (2028-2034) "yashil-raqamli" transformatsiyani, shahar-qishloq barqarorligini va hududlararo hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan.

Janubiy Koreyada "Muvozanatli milliy rivojlanish" siyosati konstitutsion darajadagi siyosiy ustuvorlik bo'lib, Prezident huzurida Balanced National Development bo'yicha Prezident qo'mitasi faoliyat yuritadi. U respublika bo'yicha mintaqalararo tafovutlarni qisqartirish, iqtisodiy faoliyatni Seul aglomeratsiyasidan tashqariga tarqatish va hududlar raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan. Maxsus qonunchilik (Special Act on Balanced National Development) siyosat dizayni va hududiy rejalar o'rtasida vertikal muvofiqlikni kafolatlaydi; iqtisodiy mintaqalar bo'yicha rejalashtirish, ilm-sanoat hamkorligi va innovatsion markazlarni rivojlantirish mexanizmlarini belgilaydi.

Hududiy siyosat konsepsiyalarini joyga bog'lanmagan (place-neutral) va joyga yo'naltirilgan (place-based) yondashuvlar nazariy spektrida baholab, ikkinchi model - joyga yo'naltirilgan strategiyaning ustunligini ilmiy jihatdan asoslaydilar. Bu yondashuv hududlarning o'ziga xos salohiyatini rivojlantirish va mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Hududiy farqlarni bartaraf etish uchun markazlashgan transferlar emas, balki bilim, innovatsiya va institut sifatini kuchaytiruvchi instrumentlar zarurligini ko'rsatadi.

Mintaqaviy rivojlanishni turli sur'atlarda rivojlanayotgan iqtisodiy tizim (multispeed economy) doirasida tahlil qilib, jahonda kuzatilayotgan asosiy tendensiyalar, ya'ni raqamlashtirish, mehnat bozorining segmentatsiyasi, innovatsion markazlar va transmilliy tarmoqlar hududiy tengsizliklarni yangi ko'rinishda namoyon etayotganini ko'rsatadilar. Ular siyosatni ishlab chiqish jarayonida hududiy birdamlik (territorial solidarity) va siyosiy o'rganish (policy learning) tamoyillarini taklif etadilar, ya'ni mintaqalar o'rtasidagi hamkorlik va bilim almashinuviga asoslangan yangi integratsion mexanizmlarni yaratish zarur.

MDH davlatlarida hududiy rivojlanish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar iqtisodiy transformatsiya jarayonlari, bozor institutlarining shakllanishi va hududiy tafovutlarning kuchayishi bilan bevosita bog'liq holda shakllandi.

## Hududiy siyosatning xalqaro modellarini iqtisodiy va institutsional nuqtai nazardan qiyosiy tahlili

| Mamlakat         | Siyosatning ustunlari   | Asosiy instrument va dasturlar   | Boshqaruv arxitekturasi   | Indikatorlar  | Natijalar va misollar   | Izoh  |
|------------------|---|--|---|---|---|---|
| Yevropa Ittifoqi | Integratsion siyosat orqali iqtisodiy-ijtimoiy-hududiy tafovutlarni kamaytirish; "yashil-raqamli" o'sish; S3 orqali bilimga tayangan o'sish | ERDF, CF, ESF+, Interreg (2021-2027) reglamentlari; Smart Specialisation Strategy (S3) va EDP (entrepreneurial discovery process)                | Ko'p darajali boshqaruv: Yevropa Komissiyasi - a'zo davlatlar - mintaqalar; dasturiy kelishuvlar va monitoring tizimi | Reglamentlar to'plami va rasmiy yo'riqnomalar; integratsiyaga oid o'lchovlar (investitsiya, bandlik, R&I)     | S3 hududiy ixtisoslashuvni kuchaytiradi; Interreg transchegaraviy hamkorlikni kengaytiradi                              | 2021-2027 o'rtasida siyosatga o'rta muddatli moslashuv takliflari (raqobatbardoshlik, dekarbonizatsiya, uy-joy) davom etmoqda         |
| Janubiy Koreya   | "Muvozanatli milliy rivojlanish" orqali markazlashuvni yumshatish, hududiy raqobatbardoshlik  | Balanced National Development maxsus qonuni; maxsus hisoblar, 5 yillik rejalash; innovatsion markazlar va ilm-sanoat klasterlari                 | Prezident huzurida BND bo'yicha qo'mita; markaz-viloyat vertikal muvofiqligi  | Qonuniy bazadagi maqsad ko'rsatkichlari: YaHM, ish o'rinlari, infratuzilma qamrovi, migratsiya oqimlari       | Sanoatning Seul tashqarisiga relokatsiyasi rag'batlari; hududiy innovatsion markazlar tarmog'i                          | Aholining hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanishi va demografik bosim siyosat samaradorligiga tizimli ta'sir ko'rsatmoqda         |
| Yaponiya         | Regional Revitalization, markazlashuvni yumshatish, mahalliy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga qaratilgan strategik dastur             | Markaz-mahalliy qo'shma dasturlar; National Strategic Special Zones; biznes-regulyator imtiyozlari; qiymat zanjiri va xizmatlar sektori qo'llovi | Vazirlar Mahkamasi huzurida Revitalization ofisi; markaz-prefektura hamkorligi; rivojlanish dasturlari                | Hukumat strategiyalari va ko'rsatkichlar: migratsiya balansi, startaplar, ish o'rinlari; akademik baholashlar | Mintaqaviy loyihalar orqali xizmatlar, turizm, agrar-oziq-ovqat klasterlarining kuchayishi                              | Aholi o'rtacha yoshining oshishi va ishchi kuchi tanqisligi fonida hududiy siyosatning uzoq muddatli barqarorligi muhim               |
| Xitoy            | Koordinatsiyali hududiy rivojlanish, sharq-markaz-g'arb tafovutlarini kamaytirish; mega-mintaqaviy platformalar                             | Beijing-Tianjin-Hebei, Yangtze River Economic Belt, Guangdong-Hong Kong-Macao GBA, Western Development kabi besh yillik rejalar                  | Milliy taraqqiyot va islohotlar komissiyasi (NDRC) - viloyat rejalarining uyg'unligi; mega-mintaqaviy loyihalar       | Reja bo'yicha ko'rsatkichlar, R&D ulushi, urbanizatsiya, uglerod intensivligi, transport tarmoqlari           | Transport-logistika integratsiyasi, yashil energiya bazalari va sanoat relokatsiyasi                                    | Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy samaradorlik nomutanosibli va ekologik yuklama siyosatni amalga oshirish jarayonini murakkablashtiradi |
| Rossiya          | Fazoviy rivojlanish strategiyasi, iqtisodiy markazlar tizimi, federal infratuzilmani joylashtirish qoidalari, hududlararo integratsiya      | Spatial Development Strategy (2019, 207-r) va keyingi yangilanishlar; milliy loyihalar (infratuzilma, Raqamli iqtisodiyot, KOB)                  | Federal markaz - mintaqalar vertikal; sektorlararo muvofiqlik; iqtisodiy-demografik konsepsiyalar                     | Strategiya va amaliy rejalar, transport yo'laklari, bandlik, YaHM tarkibi; ilmiy sharhlar                     | Transport magistrallarini o'sish markazlari bilan integratsiyalash orqali iqtisodiy faoliyat samaradorligi oshirilmoqda | Resurslarga tayanish va demografik/ sanksion omillar hududiy siyosat barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi                                 |

Zubarevichning “Four Russias” konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni faqat hududiy chegaralar orqali emas, balki aholi tuzilmasi, inson kapitali va turmush tarzi bo'yicha tabaqalanish orqali tushuntiradi:

- yirik postindustrial shaharlardan iborat “birinchi Rossiya”;
- industrial shaharlardan iborat “ikkinchi Rossiya”;
- kichik shaharlarga tayangan “uchinchi Rossiya”;
- chekka qishloq hududlaridagi “to'rtinchi Rossiya”.

Bu tipologiya hududiy siyosatni “bir tamoyil - barcha hududlar” formatidan chiqarib, turli segmentlar uchun turlicha instrumentlar talab etilishini ko'rsatadi.

Konsepsiya faqat tipologiya emas, balki siyosiy diagnostika vositasidir. Har bir “Rossiya” segmenti uchun bandlik sifati, ijtimoiy xizmatlarga kirish, migratsiya oqimlari va mahalliy byudjet barqarorligi kabi indikatorlar bo'yicha alohida siyosiy jadvallar ishlab chiqilishi kerak. Zubarevich (2012) ma'lumotlar bilan ishlashda demografik-inson kapitali indikatorlarini markazga qo'yadi va uzoq muddatli siyosatda institutsional moslashuv zarurligini ta'kidlaydi, ya'ni jamoaviy xizmatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining hududiy konfiguratsiyasi qayta loyihalanishi lozim”.

Muallif ajralib borayotgan hududiy iqtisodiyot (diverging space-economy) atamasini qo'llab, iqtisodiy o'sishning hududiy konsentratsiyasi va chekka hududlarning uzoqlashishi jarayonini ko'rsatadilar. Bu holat markazlashuv kuchaygan sari hududiy tafovutlarning kengayishini ifodalaydi. Bu jarayon kapital va mehnat mobilligi, siyosiy institutlarning sifat farqlari hamda tashqi bozorlarga ochiqlik darajasi bilan tushuntiriladi. Ishlab chiqarishning qayta ixtisoslashuvi va transchegaraviy aloqalar kuchayishi ba'zi mintaqalarda o'sishni tezlashtirgan bo'lsa, boshqalarida tuzilmaviy inersiya va pasayishni keltirgan.

Tadqiqotning amaliy saboqlari hududiy siyosatda moslashuvchan instrumentlar, ijtimoiy kapitalni safarbar etuvchi mexanizmlar va reindustrializatsiya strategiyalari zarurligi. Muallif indikatorlar tizimini faqat YaHM yoki bandlik bilan cheklamasdan, siyosiy-institutsional barqarorlik va hududiy iqtisodiyotning tashqi aloqalarini ham o'lchashni taklif qiladi. Bu yondashuv hududlararo farqlarni kamaytirishda siyosiy vositalar (soliq imtiyozlari, grantlar, infratuzilma loyihalari, tartibga solish mexanizmlari, ta'lim dasturlari va boshqalar) majmuasini farqlashning muhimligini ta'kidlaydi.

Muallif strategik rejalashtirish uchun ikki qatlamli yondashuvni taklif qiladi:

yirik shaharlar va sanoat markazlarida texnologik modernizatsiyani tezlashtirish (R&D, xizmatlar sektori, yangi tarmoqlar);

resurs bazasiga tayanadigan hududlarda qiymat zanjirini chuqurlashtirish va xizmatlar ulushini oshirish.

Bu, bir tomondan, innovatsion drayverlar orqali o'sishni rag'batlantiradi, boshqa tomondan, chekka hududlarda ijtimoiy-infratuzilma sifatini oshirish orqali migratsion bosimni kamaytiradi.

Turekulova va uning hammualliflari (2023) “Qozog'iston mintaqalari bo'yicha 2011-2020 yillar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilib, investitsiya faolligi, infratuzilma va inson kapitalidagi tafovutlarni aniqlaydi. Mualliflar indikatorlar majmuini qo'llab, hududlar o'rtasidagi farqlarni vaqt bo'yicha dinamikada ko'rsatadi va hududiy nomutanosiblikni kamaytirish uchun aniq yo'nalishlar (infratuzilma, transport kirish imkoni, innovatsion klasterlashuv)ni belgilaydi.

Ishning metodologik ahamiyati shundaki, u indikatorli yondashuvning amaliy konstruksiyasini taklif qiladi: konsistent ma'lumot bazasi, mezonlar tizimi va hududlarni guruhlash orqali strategik ustuvorlar aniqlanadi. Bu orqali rivojlanish differensiallari aniq raqamlar bilan tasvirlanadi va siyosiy rejalashtirish uchun o'lchovli asos yaratiladi. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish, inson kapitaliga sarmoya, transport-logistika integratsiyasi ushbu tahlilda markaziy o'rin tutadi”.

Mualliflar indikatorli monitoring va relyefli siyosat paketlari (klasterlashuv, tranzit yo'laklar, xizmatlar sektori) mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish uchun markaziy vosita sifatida ko'radilar.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining markazida iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish masalalari turdi. 1990-yillarda hududiy rivojlanish siyosati asosan markazlashgan boshqaruv va resurs taqsimoti asosida amalga oshirildi. Bu davrda davlat tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini hududlarga joylashtirish hamda mahalliy infratuzilmani tiklashga alohida e'tibor qaratildi.

1991-2000-yillar oralig'ida respublika bo'yicha hududiy ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, viloyatlarning iqtisodiy profillari shakllantirildi. Masalan, Farg'ona vodiysi sanoat markazi, Qashqadaryo va Buxoro yoqilg'i-energetika bazasi, Navoiy kon sanoati va kimyo markazi sifatida rivojlantirildi. Shu bilan birga, ushbu davrda barqaror rivojlanishning ekologik komponentiga yetarli e'tibor berilmagani, resurslardan haddan tashqari foydalanish va ijtimoiy sohalaridagi tafovutlar hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kuchaytirdi.

2000-2010-yillarda mamlakatda "Hududiy investitsiya dasturlari", "Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlari" kabi amaliy vositalar joriy qilinib, ularning samaradorligi statistik tahlil va prognozlash usullari bilan baholandi. Biroq bu tizim hali ham yuqoridan pastga yo'naltirilgan rejalashtirish xarakteriga ega edi.

2017-yildan boshlab O'zbekistonda yangi davlat boshqaruvi modeli va hududiy rivojlanishning strategik yondashuvi shakllana boshladi. Bu davr Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi" orqali belgilandi. Strategiyada iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi.

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida hududiy siyosatning barqaror rivojlanish bilan uyg'unlashuvi aniq ifodalandi. Unda birinchi marta BRM milliy darajada integratsiya qilindi, ya'ni 17 ta global maqsadning 134 ta vazifasi O'zbekistonning milliy ustuvor yo'nalishlariga moslashtirildi. BRM endilikda mamlakatning barcha tarmoqlari, shu jumladan hududiy strategiyalar uchun ham asosiy yo'l haritasi sifatida xizmat qila boshladi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni raqamlashtirish masalalari bugungi kunda strategik ahamiyatga ega. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiya-sida iqtisodiyotni raqamlashtirish va mintaqaviy rivojlanishni samarali boshqarish ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan.

Mazkur davrda hududiy boshqaruvni modernizatsiya qilish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirildi:

mahalliy kengashlarning vakolatlarini kengaytirish, qaror qabul qilishda "pastdan-yuqoriga" (bottom-up) yondashuvni joriy etish;

hududlararo raqobatbardoshlik indeksini joriy etish, bu orqali iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy baholash;

hududiy raqamli atlaslar, geoaxborot tizimlari (GIS) va "yagona darcha" tamoyiliga asoslangan rejalashtirish tizimini yaratish.

2020-yildan keyin pandemiya sharoitida hududiy siyosat "moslashuvchan iqtisodiy tiklanish" konsepsiyasi bilan to'ldirildi. 2021-yilda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) va O'zbekiston hukumati hamkorligida "Barqaror hududiy rivojlanish uchun kompleks yondashuv" loyihasi ishga tushirildi. Loyihaning asosiy maqsadi har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy resurs salohiyatiga asoslangan integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqishdir.

**O'zbekiston tajribasida hududiy rivojlanishni rejalashtirishda qo'llaniladigan nazariy asoslar va metodologik yondashuvlar**

| Yondashuv nomi                | Nazariy mohiyati   | Amaliy qo'llanishi   | Afzalliklari   | Cheklovlari / takomillashtirish yo'nalishlari   |
|-------------------------------|--|--|--|---|
| Tizimli yondashuv             | Hududlarni murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tizim sifatida ko'rish, ularning o'zaro aloqadorligini modellashtirish   | Har bir viloyat uchun kompleks iqtisodiy model va "raqamli atlas" tizimlari yaratilmoqda. "Hududiy rivojlanish monitoringi" tizimi tizimli yondashuvning amaliy ifodasidir   | Hududiy siyosatni kompleks boshqarish imkonini beradi; resurslardan oqilona foydalanish va barqarorlikni ta'minlaydi                                       | Ma'lumotlar bazasining to'liqligi va hududlar kesimidagi raqamlashtirish darajasi yetarli emas. Tizimlararo integratsiyani kuchaytirish zarur |
| Indikatorli yondashuv         | Hududiy rivojlanish jarayonini baholash uchun statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, ularni BRM indikatorlari bilan uyg'unlashtirish                      | 2019-yilda 206 ta milliy BRM indikatori tasdiqlangan. Statistika qo'mitasi va ITIM tomonidan "Hududiy barqaror rivojlanish indikatorlari" tizimi joriy etilgan   | Qaror qabul qilishda shaffoflik va monitoring samaradorligini oshiradi; natija yo'naltirilgan boshqaruvni ta'minlaydi                                      | Ayrim indikatorlar o'lchov birliklari yoki statistik ma'lumotlar bazasining yetishmasligi sababli to'liq ishlamaydi                           |
| Ssenariyli yondashuv          | Hududiy rivojlanishning turli variantlarini (optimistik, inertial, konservativ) ishlab chiqish orqali siyosiy-iqtisodiy qarorlarni asoslash                          | Jahon banki hamda UNDPning hisobotlarida* mamlakat iqtisodiyoti uchun bazaviy, past uglerodli va yashil transformatsiya ssenariylari ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv viloyatlar kesimida YAIM o'sishining optimistik, inertial va konservativ modellari asosida tatbiq etilmoqda | Rejalashtirishda moslashuvchanlikni oshiradi, xavf va imkoniyatlarni oldindan baholash imkonini beradi   | Ssenariy modellarining matematik asoslari va ma'lumotlarning sifatli bazasi hali yetarli darajada mukammal emas                               |
| Integratsion yondashuv        | Hududlararo iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma tafovutlarini kamaytirish, o'sish markazlarini chekka hududlar bilan bog'lash orqali umumiy barqarorlikni ta'minlash | BRM doirasida "Mamlakatlararo va ichki tengsizlik darajasini qisqartirish" (Goal 10) milliy siyosatga integratsiya qilingan; "Yangi O'zbekiston 2030" strategiyasida har bir hudud uchun klasterli rivojlanish modeli joriy etilmoqda  | Hududlararo resurs oqimini muvofiqlashtiradi, ijtimoiy qamrov va integratsiyani kuchaytiradi, bu esa mintaqaviy rivojlanishning barqarorligini ta'minlaydi | Chekka hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish uchun qo'shimcha rag'bat mexanizmlari zarur   |
| Innovatsion-raqamli yondashuv | Barqaror rivojlanishni raqamli texnologiyalar, GIS, Big Data, aqlli hududiy siyosat (smart regional policy) orqali boshqarish  | "Raqamli O'zbekiston 2030" dasturi doirasida hududiy rivojlanish uchun ma'lumotlar portallari, raqamli xaritalar va interaktiv statistik tizimlar joriy etilmoqda  | Qaror qabul qilish tezligini oshiradi, ma'lumotlarni vizual tahlil qilish imkonini beradi  | Raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi; ayrim hududlarda kadrlar salohiyati past   |

**Manba:** Jahon banki (2022) "Country Climate and Development Report: Uzbekistan" hamda UNDP (2023) "The Future of Green Transition in Uzbekistan" hisobotlari.

O'zbekiston tajribasida hududiy rivojlanishni rejalashtirish nazariy asoslar va metodologik yondashuvlarga tayangan (2-jadval). Ushbu jadval O'zbekiston tajribasida hududiy rivojlanishni rejalashtirishda shakllangan metodologik yondashuvlarning tizimli evolyutsiyasini aks ettiradi.

Jadvaldan ko'rinadiki, milliy siyosat va ilmiy tadqiqotlar amaliyotida hududiy rivojlanishni boshqarish endilikda yagona yo'nalish bilan cheklanmay, kompleks, ko'p darajali va integratsiyalashgan tizimga aylanmoqda. Tizimli yondashuv orqali mamlakat viloyatlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg'unligida tahlil qilinmoqda, bu esa barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan makro va mikro darajadagi aloqalarni modellashtirishga imkon beradi. Indikatorli yondashuv esa, o'z navbatida, BRM bilan uyg'unlashtirilgan statistik monitoring tizimini yaratish orqali qaror qabul qilish jarayonlarida shaffoflik va samaradorlikni oshirmoqda. Ssenariyli, integratsion va innovatsion-raqamli yondashuvlar esa O'zbekistonning zamonaviy strategik rejalashtirish mexanizmlarining yangi bosqichini ifodalaydi. Jadvalda ko'rsatilgan yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldirib, O'zbekiston hududiy rivojlanish strategiyasining metodologik poydevorini shakllantirmoqda bu esa milliy iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish va raqamli boshqaruv tamoyillarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Strategiyani ishlab chiqishda yangi iqtisodiy sharoitlarda hududlarning o'rni, roli va vazifalari aniqlanadi, o'zgaruvchan iqtisodiyot sharoitida mintaqani rivojlantirishning strategik ustuvorliklari belgilanadi, strategiyani yangi institutsional sharoitda amalga oshirishning iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy mexanizmlari asoslanadi. Albatta, muayyan mintaqaning rivojlanish strategiyasi mamlakatning rivojlanish strategiyasiga mos kelishi va u bilan yahlit bo'lishi kerak.

Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida mamlakatimizda boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish siyosatini amalga oshirish asosida hududlar barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda mahalliy davlat boshqaruvi organlarining roli va mas'uliyati ortib bormoqda.

Xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud: hududlarning iqtisodiy salohiyatidan yetarli darajada foydalanilmayapti, respublika dasturlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda mintaqaviy o'ziga xosli ketarlicha hisobga olinmayapti; mintaqaviy iqtisodiyotida agrar sektorning ulushi saqlanib qolayapti; ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda sezilarli nomutanosibliklar mavjud; mahalliy budjetlarni shakllantirish uchun moliyaviy bazaning yetarli emasligi; resurslar va ulardan samarali foydalanish o'rtasidagi nomutanosibliklar; mintaqalararo iqtisodiy integratsiya yaxshi rivojlanmaganligi; mintaqaviy menejmentning sust darajasi (iqtisodiy qarorlarning yuqori markazlashtirilganligi), sohaviy yondashuv va idoraviy manfaatlarning ustunligi.

Shu bilan birga, ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik boshqaruvi organlarining zamonaviy talablarga javob bermaydigan institutsional asoslari va ular faoliyatining prinsiplari o'tkazilayotgan islohotlarni to'liq ro'yobgachi qarishga hamda qo'yilgan maqsadlarga erishishga to'sqinlik qilmoqda (Nizamov, 2021).

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, xususan: ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etish asoslari hududlarni rivojlantirish sur'atlarini pasaytiruvchi, joylarda to'planib qolgan muammolarning o'z vaqtida hal etilishini ta'minlamayapti; ayrim ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarli emasligi, vazifalarning takrorlanishi va davlat tomonidan ortiqcha tartibga solish holatlarining mavjudligi amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda; ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishning amaldagi tizimi qabul qilinayotgan qarorlarning ijrosiga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishni ta'minlamayapti va boshqalar. Shu bois, hududiy rivojlanishni tartibga solishning

samarali mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda mahalliy hokimlik organlari faoliyati natijadorligini oshirish muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish dastaklaridan biri bu uni nomarkazlashtirish bo'lib, oldin markazda bo'lgan funksiyalar, vakolat va javobgarliklarni mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek fuqarolik jamiyatlari institutlariga o'tkazish hisoblanadi. Turli shakllarda (ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va fiskal) amalga oshiriladigan nomarkazlashtirish davlat rivojlanishini aniqlovchi keng ko'lamlı omillarga ta'sir etadi. Ammo nomarkazlashtirishni mamlakatning o'ziga xos jihatlarini hisobga olmasdan, yetarlicha darajada o'ylanmagan va shoshilinch tarzda amalga oshirish makroiqtisodiy vaziyatni nobarqarorlashtirish xizmatlardan noteng foydalanishga va kambag'allikning kuchayishi kabi salbiy holatlarga sabab bo'lishi mumkin. Bu bilan turli davlatlardagi nomarkazlashtirish darajasi va dasturlarning turlitumanligi, shuningdek mahalliy o'zini o'zi boshqarishni yaratishda tashkiliy va iqtisodiy qarorlarning o'ziga xosligi aniqlanadi. Nomarkazlashtirish ta'sirining bir xilda emasligi kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni minimallashtirishga yo'naltirilgan tegishli davlat chora-tadbirlarining zarurligini keltirib chiqaradi. Bu asosan faqat hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarni kamaytirish uchun muhim bo'lib, hududiy omillardan va har bir hududning raqobatdagi ustunligidan sinchkovlik bilan ishlab chiqilgan strategiya asosida foydalangan holda erishish mumkin.

### Xulosa va takliflar.

Shunday qilib mamlakat doirasida ishlab chiqilgan mintaqalarni majmualı rivojlantirish yagona strategiyasi har bir hududning o'ziga xos tabiiy-iqtisodiy salohiyatiga to'g'ri keluvchi strategiyasiga asoslangan bo'lishi darkor. Strategiyaning maqsadi-mintaqaning tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish asosida uning barqaror iqtisodiy o'sishi va aholi turmush darajasini yuksalishiga erishishdir. Markaz va mintaqalar o'zaro aloqalarini takomillashtirishning ijobiy samarasiga faqat ularning birgalikda faoliyat olib borish asosida erishish mumkin. Demak, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mintaqa xususiyatlariga mos siyosat va yondashuvlardan foydalanish, ayniqsa, majmualı ijtimoiy-iqtisodiy strategik rivojlantirishni ta'minlash katta ahamiyat kasb etadi.

### Adabiyotlar/Jumepamyra/Reference:

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ-4702-sonli Qarori.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni*

*Begg I. Innovative Directions for EU Cohesion Policy after 2020. CESifo Forum. 2018. <https://www.cesifo-group.de/DocDL/CESifo-Forum-2018-1-Begg-EU-Cohesion-Policy-march.pdf>.*

*Foray, D. (2015). Smart specialisation: Opportunities and challenges for regional innovation policy. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315773063>*

*Rodriguez-Pose, A. (2013). Do institutions matter for regional development? Regional Studies, 47(7), 1034–1047. <https://doi.org/10.1080/00343404.2012.748978>*

*Chandler A.D., Jr. Strategy and Structure. M.I.T. Press, Cambridge, Mass., 1962., p. 345.*

*Уемелянов Е.В., Аксенов П.А. Региональная политика Европейских государств // Вопросы новой экономики. 2011. №3 (19). С.19- 23.*

*Хомерики Н.Б. Отечественный и зарубежный опыт развития региональной политики // Вопросы экономики и права. 2011. № 9. С. 38-41.*

Granberg, A., Suslov, V., & Kolomak, E. (1998). *Russian 'Macro-Regions': Economic Integration and Interaction with the World Economy*.  
[https://www.researchgate.net/publication/5011836-Russian %27Macro-Regions%27 Economic Integration and Interaction with the World Economy](https://www.researchgate.net/publication/5011836-Russian-%27Macro-Regions%27-Economic-Integration-and-Interaction-with-the-World-Economy)

Tatarkin, A. I. (2016). *Regional targeting of the economic policy of the Russian Federation as an institution of regional spatial development*. *Economy of Region*, 1(1), 9-27.

Turekulova, D., & hammualliflar. (2023). *Improvement of indicators of socio-economic development of regions of Kazakhstan: 2011-2020*. *E3S Web of Conferences (TransSiberia-2023)*.

Zubarevich, N. (2012). *Four Russias: Rethinking the post-Soviet map*. *openDemocracy*.

Nizamov A.A. *Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan takomillashtirish yo'llari (Buxoro viloyati misolida): I.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati*. - T.: O'MU, 2021. - 58 b.

UNDP Uzbekistan. *Implementing Sustainable Development Goals: Rapid Integrated Assessment of key national policy development planning documents*. - Tashkent, 2022.

UNDP Uzbekistan. *Sustainable Development Cooperation Framework 2021-2025 Uzbekistan*. - 2022

Jahon Banki (2022) "Country Climate and Development Report: Uzbekistan" hamda UNDP (2023) "The Future of Green Transition in Uzbekistan" hisobotlari.

[https://ec.europa.eu/regional\\_policy/information-sources/legislation-and-guidance/regulations\\_en](https://ec.europa.eu/regional_policy/information-sources/legislation-and-guidance/regulations_en)

<https://nabis.go.kr/contentsGlobalDetailView.do?menucd=348>